

YOSHLARGA BAG'ISHLANGAN MAQOLALAR

YOSHLARG'A MUROJAAT

Bizni Turkiston va Buxoroda bir sinf muhtaram yoshlar mavjuddurki, hukumat mahkamalarinda tijoratxona, bonka va korxonalariga kotib, tarjimon, molfurush va dallollik yoinki nasyachinlik ila mashg'uldurlar va bu sinf ahlining adadi bugun Buxoro va Turkistonda minglarchadur. Ana yoshlarga murojaatdan murod shu sinf ahlidan bo'lgan hamvatanlarimizga bir necha kalima arz qilmoqdur. Lutfan so'zimizni tinglasalar, deb iltimos qilamiz. Va kamoli ehtirom ila ul janoblarga bayon qilarmizki, sizlardan aksaringiz savqi qadar va yoinki savqi tabiat ila bir nav'i bo'lub, ruscha bir oz o'qub-yozmoqga va yoinki faqat so'ylamoqga qodir bo'lubsiz va bu ozgina zamoniylar bilgu sababidan vazifa olib, yengillik va bir oz rifohiyat ila umr o'tkarursizki, Tangrim ziyoda etsun!

Va sizlarni ozgina ilmi zamoniylar bilganingiz, albatta, naf kelturdi va alhamdulillah dini mubing'a ham yaxshi mu'taqidsiz va bu ilmiylar zamoniylar e'tiqodingizni buzmadi. Zotan islomiyat shunday bir dini matn va qobili taraqqiydurki, na qadar ilmi zamoniylar ko'b o'qusa, insonni yana dini islomga shuncha aqidasi mustahkam bo'lur. Chunonchi, ilmi zamoniylar ko'b o'qug'on Ovrupo ulamolarini(ng) eng nomdor va davlatliklaridan musulmon bo'lub turgonlari jaridaxonlarga ma'lumdur. Bas, sabab bo'ldiki, ilmi zamoniylar islomiyatga zarar qilmoq nari tursun foyda etar, endi matlabga kelayluk.

Muhtaram birodarlar! Siz xidmat qilaturgon doiralarda sizdan katta va sizdan oz ishlaydurgon va sizlarga ish buyuraturgon kishilar borki, sizdan besh, hatto, yigirma dafta ziyoda vazifa olur. (Ba'zi bonka va tijoratxonalarda oyinda besh yuz so'm, hatto ming so'm olaturgon kishilar bor va alarni tijorat maktabiga o'qugoni besh-olti yilginadur.) Muning sababi nadur? Sizning qo'l ostingizda sizdan ko'p ishlaydurgon va qattig' xidmat qilaturgon va yuk ko'tara turgon musulmon va yo o'ruslar borki, sizdan ham oz vazifa olur. Muning sababi nadur? Albatta, munga javob berursizki, bizni ustimizdan qaraydurgonlarni(ng) «ilmi zamoniylar»si bizdan ziyoda va mehnatkashlarni ilmi bizga ham emas. Mana sabab shudur. Biz ham dermizki, javobingiz durust. Bas, ma'lum bo'ldiki, hozirgi zamon ishlariga xoh tijorat va hukumat va san'atxonalariga bo'lsun, kirib vazifa olmoqga va ish qilmoqga ilmi zamoniylar degan nimarsa lozim ekan va har kim baqadar bilgusi vazifa olur ekan. Bas, siz muhtamlar ham o'z avlodingizni va aziz bolalaringizni, agarda xohlasangizki, sizdan ko'ra taraqqiy etsa, din va millatga xizmat etsa. (Din va millatga xizmat ilm va oqcha ila bo'lur.) Shu ilmi zamoniylarni tahsil qilmoq uchun harakat qilmog'ingiz lozimdur. Hamvatanlarimiz mulkini sotib to'y qilganidek siz-da, hatto, lozim bo'lganda mulkingizni sotsangizda o'g'lingizni zamoncha o'qumoqiga sa'y qilsangiz. To'yga isrof qilinaturgon oqchalarni o'qumoq yo'liga sarf qilsangiz! Zamoncha o'qutmoq tariqasidan boshqa maqolada arz qilinur.

«Oyna» jurnali, 1914 yil, 21-son, 390—391-betlar.